

qo'llab-quvvatlagan kishilardandir. Zahiriddin Muhammad Bobur Afg'oniston va Hindistonda obodonchilik ishlarini shunchalik rivojlantirdiki, natijada Kobal va uning atrofida ko'pgina shinam bog'lar, Agrada esa go'zal qasr va imoratlar maydonga keldi. Ammo Hindistonda to'rt yilgina (1525-1530) umr kechirdi. Zahiriddin Muhammad Bobur 1530 yil 26 dekabrida Agrada vafot etgach, vasiyatiga ko'ra uning jasadini Kobulga keltirib, o'zi yaxshi ko'radigan bog'da dafn etdilar.

Zahiriddin Muhammad Boburdan bizgacha yetib kelgan ilmiy-badiiy asarlarquyidagilardan iborat: 1. Devos; 2. Boburnoma; 3. Araz risolasi; 4. Mubayyin; 5. Voldiya, 6. Xanti Boburiy

Ma'lumotlarga ko'ra, Bobur musiqa va harbiy bilimga doir risolalar ham yozgan ekan, ammo ularning taqdir hozircha noma'lum bo'lib qolmoqda.

TADQIQOT VA METODALOGIYA

LIRIKASI

Zahiriddin Muhammad Bobur lirikasi turli adabiyotlarda, ya'ni g'azal, ruboiy, tuyuq, qit'a, muammo, fard, masnaviy-nomalarda yozilganlari devon holiga keltirilgan. Bobur lirkasining mavzu doirasi ham xilma-xildir. Bu asarlarning barchasiga xos xususiyat shundan iboratki, ular sodda tilda, ravon uslubda yozilgan bo'lib, ma'rifiy va dunyoviy hayotiy masalalardan bahs yuritadilar. Ularda Boburning shohlik nihoyanda yaqqol namoyon bo'lganidan Boburning zamondoshi va muxlisi Mirzo Haydar o'zining «Tarixi Rashidly asarida shunday yozgan edi: Turkiy she'riyatda Amir Alisher Navoiydan so'ng hech kim Boburga teng kela olmaydi. Bunday fikr boshqa mualliflar, jumladan, Hasanxoja Nisoniyning «Muzakkiri ahbob tazkirasida ham o'ziga xos tarzda bayon etilib, misollar ham keltirilgan (Muzakkiri ahbob, 53-54- betlar).

Bobur o'zining Aerox devonga to'plagan. Ulardan birinchisi 1519 yilda Koburda tartib berilib, bir nusxasi o'sha vaqtning o'zida Samarcandga yuborilgan. Ikkinchisi esa 1528-1529 yilda Hindistonda tuzilgan. Bu ikki devonga kiritilgan she'rlar keyinchalik bir devon holiga keltirilgan. Bu haqda Boburnoma»ga ilova yozgan kosb shunday xabar beradi: «(Bobur) nazm va nast va turkly va forstyn bebadal aytur edi. Alaluusus turkly devoni bordurkim, anda toza mazmunlar topib aytibdurs (Boburnoma, 460-ber). Demak, Boburning turkly-o'zbek tilida yozilgan lirik she'rlari alohida dovon shakliga keltirilgan. Bu devonga kiritilgan she'rlarni ingliz sharqshunosi Denison Ross (1910 y.), turk olimi Fuod Kupruluzoda (1912-1913 y), rus sharqshunos A.N. Samoylovich (1917 y), o'zbek olimlari 5. Azimjanova va A.Qayumov (1958, 1965), Saidbok Hasanov (1982 y)lar nashr ettirdilar.

1983 yilda esa afg'onistonlik olima Shariqa Yorqin ularni to'plab, to'ldirib, Devon Zahiriddin Muhammad Bobur» nomi bilan Kobulda nashr ettirdi. Ana shu nashrlar asosida Abdurashid Abdug'afurov Zahiriddin Muhammad Bobur. Devon (Toshkent; Fan, 1994) asarini e'lon qildi. Ammo Boburning forsiy tilda yozgan she'rlari packanda-parishon holatda yetib kelganki, ulardan yangi topilgan ayrim namunalami afg'onistonlik bouurshunos Shafiqa Yorqin nashr ettird (Ovazi tojik, 2001, 14 fevral Boburning o'zbek tilidagi devonidan 120 ga yaqin g'azal, 210 ruboiy hamda qit'a, fard, tuyuq, masnaviy-nomalar, muammo va

masnu'lar o'rin olgan. Ular orasida son jihatidan ko'pchilikni g'azal va ruboiylar tashkil etadi.

Bobur g'azallarning ko'pchiligi 5-7 bayilik. Rubotylarda taxallus ishlatish ko'proq kuzatilsa, tuyaqlarda esa ba'zan qu'a shaklida qofiyalanishlar ham uchraydi. Masalan Qilmasa uloy nazar manga ne rong?

Tengri tole chun manga yoromadi.

O'qi yorar erdi ko'nglum dardini

Nesayin, ko'nglum uchun, yor armadi (Bobur. Devon, 106-het).

Bular Boburning an'anaviy janrlar xususiyatlarini saqlagan holda ularga ham harakat tiliganidan dalolat beradi. Bobur yoshligidan she'riy olamiga kirib kelgan bo'lsa-da, o'zining birinchi ayrim tugal g'azalini 18 yoshida, ya'ni 1501 yilda yozgan.

Bu g'azalning matia'i quyidagicha:

Jonimdin o'zga yori vafodor topmadim,

Ko'nglundir o'zga marami asror topmadan. [Devon, 37-381]

Bu g'azalning Toshkent va Xo'jand oralig'idagi Turoq chor bog'ida yozilishi sabablari Boburnoma»-da (907 h. yil voqealari) hayon etilgan. Keyinchalik umrining oxirigacha turli janrlarda she'r yozgan. Boburshunos Sabohat Azimjonovaning ma'lumotiga ko'ra, Boburning umri oxirida yozgan so'nggi to'riliги fors tilida bo'lib, uni mazkur olma shunday tarjima qilgan: Bu qimmatbaho umr arzon o'tdi ranju olamla,

Umrin home frogu ronda o'rg'amu g'usso bilo,

Samarqandu Hirotda o'magan umr ayshu ishratio,

Afsus, Agrado vayrona bo'ldi jabru skamlo. (Xalq so'zi, 1993, 16.03).

Bobur lirik she'riyatining, jumladan, g'azaliyotining mavzusi, bir tomondan, mumtoz g'azakchilikda etakchi o'rin egallagan ishq mavzusi bo'lsa, ikkinchi tomondan, Shoirning Bayot bodisa-voqealaridan olgan tassurotlarit muvaffaqiyatlar shodiyani, muvaffaqiyatsizlik tufayli zamon va uning Jafokorligidan nolish: o'zi mig'ilgan vatandan uzoqlashgani tufayli vatan va vatandoshlarini qo'm sash, o'rni bilan pand-nasihat berish kabi mavzulardan iborat. Shuning natijasida Bobur she'riyati, jumladan, g'azallari mutolaa qilinar ekan, Shoir hayotiy va falsafty mushohadalari, quvonchi, zavqi, muhabbat, o'kinch va sog'inishlari, g'azabi ya nafaning ifodalanganligi guvohi bo'ladi kishi. Ulardagi samimiylilik o'quvchini o'ziga maftun etadi. Masalan, oshiqona mavzudagi quyidagi g'azalda yor-mahbubaning yog'lig'i ro'molchasi tasvirlangan. Bu tasvir shunchalik go'zalki, uni o'qigan kishi Shaiming yog'liq-ro'molcha bahonasida yoriga bo'lgan samimiyl muhabbatini anglay oladi.

Bobur g'azallarda Shoirning hayotly voqealardan olgan taassurotlari, hasbi holi, kayfiyati bilan bog'liq bo'lgan mavzulardan bahs yuritish ham ko'zga tashlanadi. Jumladan:

Charming men ko'rmagan Jovru jafosi qoldimu?

Xasta ko'nglum chekmagan dardu balosi qudimu?

Bunday kayfiyat Boburning ruboiylarida ham o'z aksini topgan:

Tole' yo'qliki jonimg'a balotig' bo'ldi, Har ishnikni ayladim, xatolig' bo'ldi.

O'z erni qo'yib, Hind sari yuzlandim,

Yo rab, nesayin, ne yuz qorolig' bo'ldi. (Bobur. Devon, 101-ber)

Shunday qilib, Boburning turli-tuman mavzulardan babs yurituvchi g'azallari o'zining o'ynoqligi, samimiyy hissiy va taassurotlarning badily in'ikosi bo'lganligi jihatidan Asher Navoiydan keyingi o'zbek g'azalchiligidagi o'ziga xos mavqega ega. Boburning lirik asarlari orasida iboly jari ham diqqa va e'tiborga sazovordir. Boburning ruboilylari an'anaviy xususiyat va mavzuga ega bo'lsa-da, ammo ularda, xuddi g'azallarida bo'lgani kabi, Shoirning ko'rgan-kechirganlari ko'proq o'z aksini topgan mabolylarida ham soddabayonilik va samimiyylik bo'rtib turadi. Boburning ruboilylari Shoir hasbi holl, kayfiyati, botinly kechinmalarini ko'zgusidek bo'lib tuyuladi. Bobur ruboilylaridan ayrimlarini keltirishning o'zi ulaming qandayligini tasavvur etishga va tahlilu talqin etishga ko'maklashadi:

Kim yor anga ilm tolibi - Ilm kerak,

O'rgangali ilm-tolibi im kerak.

Men alibi mu alibi me yo'q.

Men bormen Ilm tollb-fimkerak (Bobur. Devon, 78-bet).

Bobur devalda kichik masnaviy janridagi she'rlar ham bor. Ularning ayrimlari sabo»ga murojaat etib, oshiq holini yorga yetkazish iltimosi bilan boshlanadi:

Sabo, ut gul rimiga qutqZ

Mening hollandin ul gulgo xabar qil... (Bobur. Devon 110-ber).

Ey sabo, elmakni qo'yg'll, ham qil, Sarvinozim ko 'yi sari azm qit... (Bobur, Devon, 116-bet).

«Validiya 1528 yilda Bobur isimma kasaliga uchrab, ancha qiynaladi. Kasallikdan qutulish maqsadida Xoja Ahrori Vall ruhiga murojaat qilib, uning "Validiya" nomli nasriy asarini o'zbek tiliga she'r bilan tarjima qila boshlaydi. Bu Ish jarayoni 10-12 kur davom etadi. Shu orada Bobur kasallikdan ham shifo topgan. Shunisi diqqatga sazovorki, asaming yaratilish tarixi «Bobumoma»da batafsil bayon qilingan. Undan ma'lum bo'ladiki, Bobur asarni yaratish jarayonida uzluksiz ijod qilgan va hattoki, bir kuni ellik ikki baytni qog'ozga tushirgan ekan. Validiya ikki yuz qirq uch bayt bo'lib, ilohiyot va odob-axloq masalalaridan babs yurtadi. Asar hamd», «Rasullulah na ti», «Risola nazmining sabablari», «Risola shuruf-boshlanishi, Risola xocimasi bo'limlaridan tashkil topgan. Validya dan kuzatilgan asosiy maqsad uyqulik (g'aflarda qolgan) ko'ngullarni bedorlig'ga etkazishdan, ya'ni Insonni o'zligini tanish orqali Haq taolo ma'rifatidan ogoh bo'lishga hidoyat qilishdan iborat. Ogohlilik, o'zni tanish, Haq ma'rifatini idrok etish insonni har qanday yomon fazilatlardan uzoqlashtiradi, uni komillik sari boshlaydi:

G'iybat yolg'ona muzly so'zin,

Ehtiraz er, yiroq engil o'zdin

Har yomon qavini o'zdin dur et,

Tilingga bir nima mazkur et. ("Validiya")

Xoja Ahror Valining «Validiyaw nasrly risolasidagi ana shu asosiy g'oyani ilg'ab olgan Bobur ham insonning ma'naviy jihatdan pokiza-barkamol bo'lmog'i uchun zase bo'lgan

bilimdan xəbərsiz qolmasın deb, asanı forsiydan o'zbek tiliga nazm bilan o'girgan. Boburning ezgu maqsadi ana shu g'oyalarni turkiygo'ylar orasiga ham targ'ib qilish, ularga tushuntirishdan iborat. Shuning uchun tarjima sodda, tushunarli, ortiqcha badily beraksiz amalga oshirilgan. Bu asar Istiqlolimiz sharofati bilan Saidbek Hasanov tomonidan nashr ettirildi.

XULOSA

<<Mubayyin>>, Zahiriddin Muhammad Bobur turli tabiiy va gumanitar ilmlar bilan bir qatorda, islomshunoslik sohasida ham katta ishlarni amalga oshirdi. Ulardan biri Voldiyaning tarjimasi bo'lsa, ikkinchisi Mubayyin>> asaridir. Bobur 1520-1521 yilda o'g'illari Humoyun va Komion mirzolarga bag'ishlab, lobiyot va Islom huquqshunosligi-fichidan bahs yurituvchi -Mubayyin masnaviysini yaratdi. Bu asar «Fich! Boburiy yoki «Fight mubayyin nomlari bilan ham yuritiladi.

"Mubayyin Bobuning «chishiga ko'p ehtirom kerak, degan aqidasingning mahsuli bo'lib, u E'tiqodiya», «Kitab us-salot, Kitob uz zakot, «Kitob is-savm» va «Kitob al-haj» deb ataladigan bo'lim-kitoblardan iborat. Bu bo'lim-kitoblarda islom dinining riknlari-lymon, namoz, zakot, ro'za, haj haqida so'z yuritiladi; ularning qonun-qoidalari, bajarish usul va tartiblari sodda tarzda bayon qilinadi. Bular, bir tomondan, o'g'illari Humoyun va Kamron mirzola bilishi uchun yozilgan bo's, ikkinchi tomondan esa kelajak avlodni ham ulardan xabardor qilish maqsadida yozilgan. Boburning kitobni yaratishdan asosiy maqsədi ham lymonli-e'tiqodi, insof va diyonatli,adolatli kishilani tarbiyalashda o'z hissasini qo'shishdan iboratdir. Bu esa barcha davrlar, jumladan, bizning davrimizdagi yosh avlodni komil inson bo'lish muhida tarbiyalashga xizmat qiladigan ezgu niyadir. Mubayyin istiqlol sharofati bilan Saidbek va Hamidbek Hasanlar tomonidan birinchi marta to'liq nashr etildi. Shunday qilib, Zahiriddin Muhammad Boburning manzum asarlari o'zining Janriy rang-barangligi, mavzu doirasining kengligi va badiiy mahoratning namoyon etilgani bilan o'zbek she'riyati tarixida o'ziga xos mavqega ega.

ADABIYOTLAR:

1. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti asr, 2006. tarixi. Tashkent: Yangi.
2. O`zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlig. 3-rom. -T.: Fan, 1978
3. Valixo'jaev B., Tohirav Q. O'zbek adabiyoti tarixi. XVI asr.-Sam.: SamDU nashri, 2002.
4. Abdug'afurov A. Bobursleylyde Bobur Devon. -T.: Fon, 1994, 3-14-belar 5. Adizova I. O'zbek atimtoz adabiyoti turid. (XVI-XIXasr I yarm) -Toshkent, Fan, 2006.-340 b.
6. Zahiriddin Muhammad Bobur. Devon. -T.: Fan, 1994,

ONA TILI DARSLARINI TASHKIL ETISHNING INNOVATSION USULLARI VA ULARNING AHAMIYATI

Ergashova Mashxura Amandjanovna

*Toshkent imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan 1-son kasb-hunar maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
Yuldasheva Barno Turgunovna*

Toshkent imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan 1-son kasb-hunar maktabining rus tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ona tili darslarida foydalanishga tavsiya etiladigan interfaol metodlar va ularning mazmuni xususidagi fikrlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *innovatsion texnologiya, metod, texnologiya, interfaol, bayon qilish, suhbat, muammoli vaziyat.*

Mustaqillik sharofati bilan respublikamizda yangilanish, rivojlanish davri boshlanib, ijtimoiy hayotimiz umumjahon andozalariga mos taraqqiyot yo'nalishlariga jadal sur'atlar bilan kirib bormoqda. XXI asr yoshlarini har tomonlama rivojlangan, yetuk dunyoviy fikr yuritadigan, bilimli, barkamol shaxslarni jahon ta'lif standartlariga mos ravishda tarbiyalash dolzarb vazifalardan biridir. Yangi asr o'qituvchisini tayyorlashda uning pedagogik - psixologik jihatdan chuqur bilimga egaligi, intellektual salohiyatning yuksak darajadaligi, innovatsion ta'lif texnologiyalari, ta'lifning interfaol usullari va ilg'or samarali metodlariga oid ijodiy faollikni oshirishning samarali usullaridan xabardor bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda barcha ta'lif muassasalarida o'qitish jarayonida interfaol usullardan foydalanishga erishilmoqda. Bu esa interfaol ta'lif asosida tashkil etilayotgan pedagogik jarayonlarning mazmun-mohiyatini to'liq tushunib yetishga va ularni samarali, qiziqarli, sifatli bo'lishini ta'minlashga ko'maklashadi. Interfaol usullaridagi darslar o'quvchini ijodiy fikrlashga, olingan axborotlarni faollikda hal etishga, fikrni erkin bayon etishga, tashabbuskorlikka, guruhlarda masalalar yechimini topishga, hamkorlikda ish yuritishga, fikrni yozma ravishda bayon etishga chorlaydi. Interfaollik – bu o'zaro ikki kishi faolligi, ya'ni bunda o'quv-biluv jarayoni o'zaro suhbat tariqasida dialog shaklida yoki o'quvchining o'zaro muloqoti asosida tashkil topadi. Interfaol ta'lif asosini interfaol metodlar tashkil etadi. Ta'lif jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtaida hamkorlikni qaror toptirish, faollikni oshirish, ta'lif oluvchilar tomonidan bilimlarni samarali o'zlashtirish, ularda shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladigan metodlar interfaol metodlar sanaladi. Ona tili darslarida zamonaviy usullardan foydalanish o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish hamda mavzuni o'zlashtirishda yaxshi samara beradi.

Ona tilini o'qitishda o'qituvchi bilan o'quvchining birgalidagi faoliyatini tashkil etish shakllari, metodlari va usullari ta'lif tizimining takomillashuvi bilan bog'liq holda rivojlanib, yangilanib bormoqda. Hozirgi kunda o'qitish metodlari sifatida tushuntirish bayon metodi, suhbat metodi, analiz - sintez metodi, mustaqil ish metodi, aqliy hujum metodi, klaster metodlari ona tili ta'lifi darslarini tashkil etishda ko'proq qo'llanilib kelinmoqda.

Bayon qilish metodi - она тили дарсларидаги оқувлардан асосиyl metodlardan biri bo'lib, bunda o'qituvchi bayon qilishdan oldin o'quvchilarining o'rganilayotgan mavzu yuzasidan bilimlarini aniqlab oladi. Bu o'quvchilarini o'qituvchi bayonini kuzatib, tinglab borishga, faol bo'lismga undaydi. O'qituvchining bayoni, ya'ni bayon qilish metodida grammatik mavzuning xususiyatidan kelib chiqib, o'qituvchi ma'lumotlarni o'z so'zlari bilan bayon qilib beradi. Bunda o'qituvchi zimmasiga o'rganilayotgan grammatik mavzuning muhim o'rinalarini aniq, lo'nda, misollar tahlili bilan izchil bayon qilib berish vazifasi yuklatiladi. Bayon qilish metodi o'quvchilarining yoshi va eslab qolish holatidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Suhbat metodi - она тили fanini o'qitishda keng qo'llaniladigan va o'quvchilar tabiatiga mos metod sanaladi. Suhbat metodi savol - javob metodi deb ham yuritiladi. Suhbat metodi o'qituvchidan mavzuning xususiyatini o'zida aks ettirgan o'quv materialini topishni, grammatik mavzuning muhim belgilarini aniqlash, ularning o'xshash va farqli jihatlarini ajratish, o'xshash va farqli jihatlariga qarab guruhash, umumlashtirishga, xulosa chiqarishga yo'naltirilgan savollar tuzishni, ularni o'quvchilarga izchil berib borishni talab etadi.

Suhbat metodining muammoli o'qitish metodi - sifatida qo'llanilishi ta'limda o'quvchilarini faollashtirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Muammoli o'qitish metodiga amerikalik pedagog va psixolog Dyun 1894 - yilda asos solgan. Bu metodning maqsadi ilmiy tushunchalarini o'zlashtirishga yordam berishgina emas, balki o'quvchilarining bilish qobiliyatini ham rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarini o'stirish hamdir. Bunda suhbat davomida o'qituvchining topshirig'i bilan o'quvchining oldiga biror muammo qo'yiladi va darsda muammoli vaziyat yaratiladi. Bu muammoni o'quvchi oldin egallagan bilimlari asosida hal etadi. O'quvchilarining hayotiy tajribalari kamligi sababli o'qituvchi muammoni hal qilishga yordamlashuvchi savollar beradi. Muammoni o'quvchi hal qila olmasa, uni o'qituvchining o'zi hal qilishiga to'g'ri keladi. Shuning uchun muammoli o'qitish metodi yarim izlanishli muammoli metod deb ham yuritiladi. Masalan, muammoli o'qitish metodini leksik-grammatik mashqlarni tashkil etishda ham unumli foydalanish mumkin.

Ona tili darslarida mustaqil ish metodi asosan o'rganilgan mavzuni mustahkamlash qismida mashqlar ishlash jarayonida qo'llaniladi. O'quvchilar o'qituvchining topshirig'i bilan mustaqil ishlarni og'zaki yoki yozma shaklda bajaradilar. Topshiriq qiyin va ko'p vaqtini olmasligi, o'quvchilar kuchi yetadigan qilib, muayyan vaqt ichida bajarishga mo'ljalangan bo'lishi kerak. Mustaqil ishslash uchun topshiriq har bir guruhga beriladi va u asta - sekin murakkablashtirilib boriladi. "Yozgan so'zlariningizni lug'atdan tekshiring", "Rasm asosida matn tuzing", "Mavzuga mos krossvord tuzing", "Matnda tasvirlangan narsalarni aniqlang va ularning nomini yozing" kabi mavzularga mos topshiriqlar berib boriladi.

Analiz-sintez metodi - она тили ta'limi jarayoniga analiz — tahlil grammatik hodisaning muhim belgilarini aniqlash maqsadida, o'rganilgan grammatik tushunchaning yangi qirralarini ochish va mustahkamlash maqsadida tatbiq etiladi. Fonetik, leksik, morfologik va sintaktik tahlil shu metodning amalda namoyon bo'lishidir. Sintez qismlarga bo'lib